

**KASB-HUNARNI INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI,
O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING MUHIM MASALALARI****Saitxaova Firuza Qudratullaevna***Toshkent viloyati Qibray tumani 7-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kasb bu insonning ijtimoiy iqtisodiy faoliyat turi ekanligi, moliyaviy to'qlik yoki yetishmovchilik uning natijasida ekanligi, kasb ta'limi psixologiyasining asosiy muammosi va shaxsning kasbga yaroqliligini aniqlash, tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo'naltirish masalalari haqida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar: Kasb, kasb psixologiyasi, kasbiy faoliyat, bilish jarayonlari, nutq, xotira, kasblar tasnifi, kasblar haqida tushuncha.

KIRISH

Kasb-kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi, muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi.

Kasb inson uchun zarur bôlgan, bo'sh vaqtida shug'ullanadigan, Vatani uchun xizmat qiladigan ishdir. Kasblarni hamma ham egallay olmaydi. Kasb ôrganish uchun eng avvalo ôqish va bilim olish zarurdir. Bilim olish igna bilan quduq qazishdek gap. Agar insonda bilim bôlmasa u ôzi istagan biror bir kasbni egallay olmaydi. Hayotda kasblar shunchalik kôpki, ular orasidan bittasini tanlash shunchalik qiyin. Shunga qaramasdan inson ôzi yoqtirgan, kasbli kishilarni kôrib shu kasbni yoqtirib qolib shu kasbni egallashga harakat qiladi. Kasb qanchalik muvaffaqiyatli tanlansa, inson ôzini shunchalik baxtli his qiladi. Ammo har qanday muttaxassislikni egallash uchun yaxshi ôqish va tanlanga kasbga kôproq qiziqish kerak. Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. O'z-o'zini anglashning chegaralanganligi bu-erkinlikni chegaralanishi hisoblanadi. Agarda mutaxassis o'zini chuqur bilsa, boshqalarni ham chuqur tushuna oladi. Shaxsiy ma'suliyatlikni qabul qilish ham muhim sifatlardan hisoblanadi. Insoniyat paydo bo'libdiki u har doim o'zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar.

Kasb – inson ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo’li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig’uvchi chilangar kabi yo’nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O‘zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud.^[1] SHuni aytish joyizki jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko‘payib boradi. SHu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo‘ladi.

Kasb – hunarli bo‘lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o‘z asarlarida aytib o‘tganlar. Deylik Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida shunday yozadi “Bas, agar aqling bo‘lsa xunar o‘rgang‘il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo‘lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ etkurmas.” Hozirda o‘shib kelayotgan yoshlar o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasbni tanlab olishlari va o‘z hayotlarini mazmunli, yaxshi o‘tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o‘rni va ahamiyati juda katta. “Men kelajakda kim bo‘laman?”, “YAxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?”, “Mendagi iqtidor shunga etadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan ko‘lab savollar yoshlarni o‘ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular ko‘plab kuzatadilar, hayotdan ma’lum bir malakalar olishga intiladilar.

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko‘rsatib beradi. Xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi. O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma’lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo‘lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma’lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolaBunda bolada paydo bo‘luvchi xavas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so‘zlarini tinglash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo‘lidan ko‘plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o‘xshashga xavasni uyg‘otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va xafsala paydo bo‘ladi. Bu jarayonlar bolada uyg‘onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lib uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishning xissiyotlari, irodalari bilan bog‘liq jarayondir. Katta bo‘lib

borayotgan bolada xavas paydo bo'ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohish, istak va orzusi bo'lib ko'zga tashlanadi. Bu yo'lda bola o'ziga tilak tilab shu kasbni egallashga bo'lgan intilishi sodir bo'ladi. Agarda bola o'z tilaklarini xafsala bilan amalga oshirmasa, xarakter qilmasa bu armon va orzu bo'lib qoladi. SHuning uchun u zo'r ishtiyoq bilan xarakter qilishi va armonlarini amalga oshirishi zarur bo'ladi. Ko'rinib turibdiki bu jarayonlar insonga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni tashkil etib. Insonning maqsadini vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda insondan iroda kuchi ham talab qilinadi. Ishtiyoq bu – zo'r istak, xohish hisoblanadi. Yoshlarni kasb tanlashlari yo'lidagi bunday jarayonlarni o'rgangan psixolog olimlar ularni quyidagicha ta'riflaydilar. Insonni anglash darajasiga ko'ra kasb tanlashda quyidagi tomonlar ta'riflanadi. Istak – intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina o'zining hozirgi holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini, binobarin, bu maqsadga erishishning yo'l – yo'riqlarini aniq bilmaydi. Bunda kishi nima istayotganini o'zi anglab etmaydi. Bola o'zi nimani istayotganini anglamas ekan bu istakni amalga oshirib bo'lmaydi.

Insondagi istak ma'lum darajada anglangan bo'lsa, tilak – xavasga aylanib ketishi mumkin. Tilak – havas intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina qanday maqsadga intilayotganligini biladi, lekin bu maqsadga erishish yo'llarini aniq bilmaydi. Bunday tilak bo'lgan paytda bolada ko'pincha yangi intilish paydo bo'ladi. Bunda bolada tilakka erishish uchun vosita va yo'llarqidirish, ba'zi vaqtda esa o'zida tug'ilgan tilakni bosishga intilish hosil bo'ladi. Agarda amalga oshirish uchun vosita va yo'llar topilsa, u vaqtda tilak to'la anglangan va maqsadga intilishning vosita va yo'llarini aniq anglanganini ko'rsatadi. Tilakni tobora anglanib borishi natijasida xohishga aylanib boradi. Xohish esa to'la anglangan intilishdir. Bunda inson maqsadi sari anglangan xarakterlarni bajarishga tayyorlanadi va o'z irodasini shu maqsad sari yo'naltiradi. Kasb tanlashda inson irodaviy xarakterlarni amalga oshiradi. Irodaviy xarakterlar – ilgaridan mo'ljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan xarakterlardir. Insondagi bu irodaviy harakatlar ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy xarakterlar insonni anglangan va o'z xohishi bilan bajariladigan harakatlari hisoblanadi. Irodaviy xarakterlar motivlar asosida amalga oshiriladi. Motivlar kurashi natijasida inson o'zining maqsadlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qiladi va shu qarorlarni amalga oshirish uchun intiladi.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- Umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimlarga ega bo'lishni;
- Kasb tushunchasining ta'rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini kasblar sonini va turlarini bilishni;

• Kasbni inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish va u haqida tasavvurga ega bo'lish;

• Kasb tanlashga kerak bo'lgan idrokni, xohishni mavjud bo'lishi; • O'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olgan bo'lishi; • Kelajagi haqida tasavvurlarni bo'lishi.

• Yoshlar o'z kelajagini anglagandagina, o'z qiziqishlari va manfaatlarini aniqlab olgandagina, hayotini tashkil etishdagi ehtiyojlarini tushungandagina kasbni tanlashlari onson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi.

• Kasb haqida ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Jalalov kasb qanday tanlanadi. 2010 Y. 62 b.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.1998.17b
3. Kaykaus. "Qobusnoma" T., 1994 y. 26 b.
4. Gurevich K.M. Дифференциальная психология и психодиагностика. 2008 y. 21b.
5. Ziyo.net
6. S.X.Jalilova Kasb Psixologiyasi.2010y
7. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Open Access Repository*, 9(11), 106-113